



PAXTACHI TUMANI MIKROTOPONIMLARINI O'RGANISHDA TADQIQOT METODLARINING SAMARADORLIGI

Ergasheva Nodira Abdurayimovna,
Navoi State Mining and Technologies University
e-mail: ergasheva.68@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20716919>

Abstract. Maqolada Paxtachi tumani mikrotoponimlarini o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot metodlarining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Lingvo-onomastik, leksik-semantik, etimologik, tarixiy-tipologik va kartografik metodlarni kompleks qo'llash mikrotoponimlarning kelib chiqishi, ma'no qatlamlari hamda nomlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim omil ekani asoslangan. Shuningdek, mahalliy nutq, arxiv manbalari va dala materiallarining uyg'un qo'llanilishi tadqiqot samaradorligini oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mikrotoponim, Paxtachi tumani, onomastika, lingvo-onomastik tahlil, tadqiqot metodlari, leksik-semantik metod, etimologik tahlil, tarixiy-tipologik yondashuv, xaritografik usul, mahalliy nutq.

Abstract. В статье проводится научно-практический анализ эффективности исследовательских методов, применяемых при изучении микротопонимов Пахтачинского района. Обосновано, что комплексное использование лингво-ономастического, лексико-семантического, этимологического, историко-типологического и картографического методов является важным фактором для определения происхождения микротопонимов, их смысловых слоёв и особенностей наименования. Также показано, что сочетание местной речи, архивных источников и полевых материалов повышает эффективность исследования.

Ключевые слова: микротопоним, Пахтачинский район, ономастика, лингво-ономастический анализ, методы исследования, лексико-семантический метод, этимологический анализ, историко-типологический подход, картографический метод, местная речь.

Abstract. The article provides a scientific and practical analysis of the effectiveness of research methods used in the study of microtoponyms of the Pakhtachi district. It is substantiated that the complex use of linguistic-onomastic, lexical-semantic, etymological, historical-typological, and cartographic methods plays an important role in determining the origin of microtoponyms, their semantic layers, and naming features. It is also shown that the combined use of local speech, archival sources, and field materials increases the effectiveness of the research.

Keywords: microtoponym, Pakhtachi district, onomastics, linguistic-onomastic analysis, research methods, lexical-semantic method, etymological analysis, historical-typological approach, cartographic method, local speech.

Kirish. Joy nomlari - toponimiya doirasiga suv obyekt va inshootlarining nomlari ham kiradi. Suv obyekt va inshootlarining nomlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganuvchi soha gidronimika deb ataladi. Gidronimika termini tarkiban grekcha hydro - suv, onoma – nom va -ika - oid kabi ma'noli qismlaridan iborat bo'lib, «suv obyektlarining nomlariga oid» degan lug'aviy ma'noga ega.[1]



Tadqiq qilinayotgan Paxtachi tumani mikro doiradagi geografik nomlari mamlakatimizning o'tmishi va kelajagini yoritishda, lisoniy jarayonlarning qanday darajada o'zgarganligini belgilashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek toponimikasi sohasida samarqandlik toponimshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Viloyat toponimlarini lingvistik tahlil etish mamlakatimiz tarixining qadimiy va zamonaviy bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Samarqandlik tilshunoslar L.I.Royzenzon, H.Berdiyev, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorov, B.O'rinboyev, T.Raxmatov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo'riyev, Sh.Temirov[2] kabi olimlar tomonidan Samarqand viloyati toponimiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Samarqand viloyati toponimlarini quyidagi olimlar tadqiq etishgan: S.Bo'riyev "Urgut tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili", A.Turobov "Samarqand etnotoponimlari tadqiqi", N.Begaliyev "Samarqand viloyati gidronimlarini lisoniy tadqiqi" nomli, Sh.Temirov esa "Samarqand viloyati oronimlarini lisoniy tadqiqi" mavzuida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan, A.O'tamurodov esa Samarqand va jizzax viloyatlari toponimlarini ilmiy tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Paxtachi tumani mikrotoponimlarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Lingvo-onomastik, leksik-semantik, etimologik va kartografik metodlar asosiy usullar sifatida tanlandi. Shuningdek, qiyosiy va tarixiy yondashuvlardan ham foydalanildi. Tadqiqotda dala materiallari, arxiv manbalari va mahalliy nutq ma'lumotlari asos qilib olindi.

Tahlillar va natijalar. Quyida lingvistik metodlar bilan birga, ko'pincha, geotoponimik tadqiqotlarda qo'llaniladigan geografik, kartografik, tarixiy, statistik, etimologik kabi metodlar haqida ilmiy qarashlar bayon qilingan. Shuni alohida qayd etish kerakki, bukungacha shakllangan tadqiqot metodlarining qaysi biri yanada samarali ekanligini aytish mushkul. Chunki har bir tadqiqot metodi geografik nomga nisbatan turlicha va turli darajada yondashuv imkoniyatini taqdim qiladi hamda nomning ham lisoniy, ham falsafiy mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, tahlil va sintezning turlicha tadqiqot metodlaridan foydalanib geografik nomning asl ma'no-mazmunini aniqlash mumkin. Toponimik tizimning bir bo'lagi bo'lgan geografik nom, hech qachon yakka, tanho emas, u turlicha ko'rinishdagi uzun "zanjir"ning "halqa"laridan biridir. Shu sababdan, muayyan hudud toponimiyasining o'ziga xos spesifikasini inobatga olgan holda tadqiqotlar olib borish, tahlilning muayyan darajada to'g'riligini va samaradorligini ta'minlaydi, shu bilan birga, geografik nomning ilmiy talqinini aniqlashda kata ahamiyatga ega. Ushbu masalaga e'tibor qaratgan taniqli geograf olim H.Hasanov shunday ta'rifni beradi, "Har bir joy nomining bamisoli ikki tomoni bor - sirti va ichi. Sirdan qaraganda har bir nom atoqli ot bo'lib ko'rinadi. Afrika,



Grenlandiya, Xitoy, Misr, Parij singarilarning joy nomi ekanligi har kimga ham ayon. Ammo nomning ichki tomoni ham borki, uni ko‘rish uchun “rentgen”ga solish lozim: bu nom qayerda, nega shunday atalgan, qaysi tildan olingan? Joyning bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tadqiqotchiga muyassar bo‘ladi”. [3]

Toponimika fanining shakllanishi va metodologik asoslarini belgilashda E.M.Murzayev, Yu.A.Karpenko, V.A.Juchkevich, Ye.M.Pospelov singari rus olimlari, shuningdek, o‘zbek toponimikasining rivojiga munosib hissa qo‘shgan S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Dosimov, T.Enazarov kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, filolog olim T.Enazarov so‘nggi yillarda olib borgan ilmiy izlanishlarida toponimik tadqiqotlarda lingvistik metodlarning samaradorligini asoslab bergan.

Toponimik birliklar bilan shug‘ullanadigan mutaxassisning vazifalaridan biri shuki, sohaning turli tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, dalillangan ilmiy natijalarni qo‘lga kiritishdan iborat. Shu sababli, olib boriladigan toponimik izlanishlarda hudud nomlarini tadqiq qilishning maqsadli ravishda amalga oshilishi muhim ahamiyatga ega bolib, quyida berilgan tadqiqot metodlari ishning samarali ilmiy natijalarga erishishda muhim hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, toponimik tadqiqotlarda qaysi metodning ustuvorligini aniq belgilash mushkul, chunki har bir metod geografik nomning ma’no va mohiyatini turli nuqtayi nazardan yoritadi. Shunga ko‘ra, metodlararo uyg‘unlikni ta’minlash O‘zbekiston toponimikasining nazariy asoslarini yanada boyitadi hamda Paxtachi tumani toponimlarining tarixiy-lisoniy qatlamlarini tahlil qilishda muhim ilmiy natijalar olish imkonini beradi. Masalan, o‘zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda turli metodologik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, tadqiq etilgan tuman hududidagi *Toma, Yobu (Jobu), Mesit, Burqut, Ko‘rpa, Sanchiqul, Sarapoyon* (hozirda mahalliy xalq shevasiga moslashib, fonetik o‘zgarish natijasida “*Sarapan*” deb yuritiladi), *Loqay, Mojoy, Urganji, Juvontayoq* (mahalliy xalq shevasiga asosan “y” harfi “j” harfiga o‘zgarib, fonetik o‘zgarish yuzaga kelgan, asl so‘z shakli “*Yo‘g‘ontayoq*” hisoblanadi), *Bodoy, Bahrin, Ukrach, Momoy, Ochamayli, Chuvilloq, Polvonchi, Tutli, Sovungar, Ko‘ktosh, Qo‘sh tamg‘ali va Jo‘ymahmud* kabi toponimlar.

Mazkur tadqiqotda esa Paxtachi tumani toponimlarini o‘rganishda nafaqat *lingvistik*, balki *xaritografik, qiyosiy-chog‘ishtirma, stilistik, tarixiy, etimologik, tasviriy, areal, semiotik va statistik* metodlardan kompleks tarzda foydalanish zaruriy deb hisoblanadi. Bu metodlar toponimlarning kelib chiqish manbai, tarixiy qatlamlari, semantik xususiyatlari va hududiy taqsimlanish qonuniyatlarini aniqlashda keng imkoniyat yaratadi. Shu bois toponimlarni o‘rganish jarayonida ularni tahlil etish metodlarini to‘g‘ri tanlash ilmiy natijalarning ishonchligini va obyektivligini ta’minlaydi. R.Rasulov ta’kidlaganidek, “Har



bir fanning mavjudligini, xulosalari, faolligi uning tadqiqot obyekti, tadqiqot maqsadi va ayni vaqtda, tadqiqot metodlari bilan baholanadi, o'lchanadi"[4]

Morfologik tahlil. Morfologik tahlil deyilganda, so'zni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, so'z shakllarini aniqlash ko'zda tutiladi. *Lingvistik yondashuv* toponimlarning morfologik tuzilishini va yasama modellari asosini aniqlashga imkon beradi. *Qo'shtamg'ali* toponimi qo'sh + tamg'a + li komponentlaridan tuzilgan murakkab yasama birlikdir. *Jo'y Mahmud* esa jo'y (suv yo'li) va Mahmud (shaxs nomi) komponentlarining semantik uyg'unligidan tarkib topgan. *Yangibuloq* toponimi sifat + ot modelida yasalgan gidrotoponim bo'lib, yangi suv manbasining ochilganini bildiradi.

Xaritografik yondashuvga ko'ra, mazkur toponimlar joylashuvi jihatidan tabiiy landshaft elementlari bilan uzviy bog'liqdir. *Toshko'prik* toponimi suv oqimi ustida joylashgan infratuzilmaviy obyektni bildirsa, *Tutli* nomi o'simlik qoplami zich bo'lgan pasttekislik hududni ifodalaydi. *Yangibuloq* tabiiy suv manbai mavjud joy nomi sifatida relyef o'zgarishlarini ko'rsatadi, *Ko'ktosh* esa toshli massivlar va geologik tarkibi bilan ajralib turuvchi hudud nomidir. Bunday tahlil toponimlarning tabiiy geografik muhit bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Xaritografik metodning keng imkoniyatlarini, nomlar asosida xaritalar tuzish va ulardan foydalanishning afzalliklarini Ye.M.Pospelov[5] o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritib o'tgan.

Qiyosiy-chog'ishtirma metod xaritografik ma'lumotlar asosida toponimlarni boshqa hududlardagi o'xshash nomlar bilan solishtirishga imkon beradi. Ushbu metod orqali toponimlarning tarqalish xususiyatlari, kelib chiqishini farqlash hamda hudud toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlariga oydinlik kiritiladi. Masalan, Yangibuloq va Toshko'prik toponimlari respublikaning boshqa viloyatlarida ham uchraydi, bu esa ularning umumxalq toponimik model sifatida shakllanganini anglatadi. Ushbu yondashuv Paxtachi tumani toponimikasini umumiy o'zbek toponimik tizimi bilan uzviy bog'laydi.

Stilistik yondashuvda toponimlarning obrazlilik va estetik jihatlari tahlil qilinadi. Ko'ktosh va Yangibuloq toponimlarida rang, yangilanish va tabiiylik obrazlari mujassam bo'lib, ularning xalq tilida ijobiy semantik ohang kasb etganini ko'rsatadi. Tutli toponimi hayotiylik va barqarorlikni ifodalovchi ramziy ma'noga ega, Qo'shtamg'ali esa tarixiy o'zlik va identifikatsiyani anglatuvchi timsol sifatida xalq xotirasida saqlanib qolgan. *Stilistik* metod. "Toponimlar tilning boshqa birliklariga xos bo'lgan xususiyatlardan, jumladan, stilistik xususiyatlardan ham holi emas. Ular o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, yana qo'shimcha ma'nolarni aks ettiradi. Ushbu ma'nolar, odatda, stilistik ma'nolar deyiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda poyetik onomastika tushunchasi mavjud".



Paxtachi tumani toponimlarini ana shu metodlar asosida tahlil etish shuni ko'rsatadiki, joy nomlari o'zida tabiiy-geografik muhit, tarixiy jarayonlar, etnik qatlamlar va xalq tili ifoda vositalarining murakkab uyg'unligini mujassamlashtirgan. Har bir metod toponimlarning ma'no qatlamlarini turlicha yoritadi, biroq ularning kompleks qo'llanilishi Paxtachi tumani toponimikasining ilmiy-nazariy asoslarini yanada chuqurroq anglash va o'zbek toponimik tizimining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tapuxuü tahlil metodi. Onomastika sohasida toponimlar tahlilida tarixiy tahlil metodi muhim ahamiyatga ega. Chunki toponimlarda xalqning o'tmish tarixi, etnografiyasi, til unsurlarining o'zgarish davriyligi ildizlarini topish mumkin bo'ladi. Ushbu metodda toponimik birliklar perspektiv (tarixiy holatda hozirgi ko'rinishidagi o'zgarishlar) va retrospektiv (hozirgi holatidan tarixiy holatigacha bo'lgan tarixiy rivojlanish jarayoni) tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Toponimlarni tarixiy metod bilan tadqiq etganda, dastlab, ularning talaffuzi hamda ma'nosi qanday bo'lganligi aniqlanadi va qiyoslanadi. Natijada tahlil qilinayotgan nomlarning eng qadimgi shakllari – tashqi tomoni (etimologik shakli, ya'ni so'z va qo'shimchalarning eng qadimgi shakli tiklanadi) hamda ichki tomoni – ma'nosi (etimologik ma'nosi) kelib chiqadi. Masalan, *Qo'shtamg'ali* chorvador urug' yoki sulolalarning tamg'a belgilariga ega bo'lgan davrni aks ettiruvchi etnotoponimdir. *Jo'y mahmud* esa suv inshooti qurilgan joyni bildiruvchi antroponimik toponim bo'lib, o'rta asrlardagi irrigatsion faoliyatni eslatadi. Bu yondashuv toponimlarning ijtimoiy-tarixiy mazmunini ochib beradi.

Shu o'rinda Paxtachi tumani toponimlaridan *Ziyovuddin, Dabusiy qal'asi, Mesit, Qorluq, Bodoy, Bahrin, Bog'olon, Qo'shtamg'ali, Oytamg'ali, Ko'ktoshtepa, Karvonsaroy, Nayman, Qarnob, Sultonravot (Sultonobod), Poyonigumbaz, Barlos* (Barlos qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lib, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida boshqa turkiy qabilalar qatorida barloslar ham Doroga qarshi kurashganligini yozgan)[6], *Uchuruv* (ushbu toponim Paxtachi tumanida qishloqning nomi bo'lib, uch urug' – yobi, toma, mesit urug'laridan tashkil topgan ittifoq bo'lgan. Uch urug' so'zida -g' tovushi -v tovushiga o'zgarib, fonetik o'zgarish yuzaga kelgan. Qadimda Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan),[7] *Yobu (jobu)* – turkiy etnonim. "G'arbiy turklarning oliy hukmdorlik unvonlaridan biri yog'bu (yabg'u) deb atalgan. Qadimiy turklarga bu unvon qabila va qabilalar ittifoqi boshlig'iga berilgan. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan bo'lmish Qarluq xonlari ham yobg'u deb atalgan",[8] *Toma (Toma)* – o'zbek urug'laridan biri. Toma asli mug'ul qabilasi bo'lib, "Dashtqipchoq o'zbeklari tarkibiga kirgan va XV-XVI asrlarda ko'chmanchi o'zbeklar bilan birga Movarounnahr va Xorazmga kelib o'rinishgan",[9] "(Nasabnomayi o'zbek" kitobida ham toma o'zbek qavmlaridan biri sifatida qayd etilgan)",[10] "Fay (arablar istilosiga



qadar Dabusiya qal'asi Fay (Pay) saltanatining poytaxti bo'lgan)"[11] kabi toponimlarni tahlil qilishda mazkur metodning samaradorligi ko'rinadi.

Etimologik metod. Geografik nomlarning asl ma'nosi va mazmunini aniqlashda eng qadimiy va hozirda ham toponimika fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etimologik usulni qo'llash yaxshi samara beradi. Ko'p yillar davomida etimologiya toponimikaning asosiy vazifasi sanalgan. Hozir ham u boshqa metodlar orasida muhimligi bilan ajralib turadi. E.M.Murzayev ushbu metodning kamchiligi haqida gapirib, joy nomi bilan bog'liq geografik voqealikka va tarixiy ma'lumotlarga tayanmasdan geografik nomning asl ma'nosi haqida xulosa chiqarish etimologik usulni ishonchsiz va bahstlab qilishi mumkin degan fikrni bayon qilgan. Ayrim mutaxassislarining fikricha, xususan, substrat toponimlarni o'rganishda etimologik usulga tayanish ko'pincha chalkashliklarga olib keladi. *Tasviriy metod.* Ushbu metodga ko'ra, tadqiq etilayotgan hudud toponimlari to'planadi va tizmlashtirish asosida tasnif qilinadi, bunda o'lka, shahar, qishloq, mahalla, guzar, ko'cha, muqaddas qadamjo, qabriston, masjid, tog', qir, tepalik, daryo, ko'l, soy, cho'l, dasht, maydon, yaylov kabilarning ro'yxati shakllantiriladi, ularning lisoniy xususiyatlari aniqlanadi.[12] Ma'lumki, tasviriy metod barcha ijtimoiy-tarixiy va tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi. Shunga ko'ra bu metod boshqa metodlar orasida qo'llanish ko'lami jihatidan eng yuqori o'ringa guradi. Masalan, daryo, ko'l, buloq, ariq, kanal, soy nomlari ro'yxati gidronimlarni tasviriy metod bilan o'rganishda katta yordam beradi. Ana shu ro'yxatlar materiali asosida keyinchalik onomastik birlik (toponim, gidronim kabi)larning lug'atlari tuziladi. Shu qatorida, mazkur metod asosida toponimlarning ko'pchiligi bevosita joyning tabiiy yoki madaniy belgilari aniqlanadi. Masalan, *Ko'ktosh* toponimi rang va predmet asosida, *Tutli* o'simlikka bog'liq holda, *Toshko'prik* esa inshootning tashqi ko'rinishiga asoslanib yaratilgan.

Areal metod esa toponimlarning hududiy tarqalish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Paxtachi tumanida gidrotoponimlar (*Jo'ymahmud, Yangibuloq*) suv resurslari boy hududlarda, fitotoponimlar (*Tutli, Mevali*) o'simlik o'sadigan zonalarda, oronim va geomorfologik toponimlar (*Ko'ktosh, Toshko'prik*) esa toshli, adirli yerlarda joylashgan. Bu metod toponimlarning mintaqaviy tizimda qanday taqsimlanganini aniqlash imkonini beradi. "Areal toponimika – toponimiyaning turli hududlar bo'ylab tarqalish xususiyatlarini o'rganuvchi tarmog'i"[13] Bu metod orqali tadqiqotchilar muayyan bir toponimning turli hududlar bo'yicha areal yoyilishiga aniqlik kiritishadi. Masalan, tadqiq etilgan hudud toponimiyasidan "Sarbozor" nomi mazkur metod orqali tahlil qilinganda, ushbu nomning areallari mamlakatimizning Katta qo'rg'on, G'ijduvon, Ishtixon, Oqdaryo, Konimex, G'allaorol va boshqa hududlarida tarqlanganligiga guvoh bo'lamiz.



Semiotik metod. Mazkur metod yunon tilidan olingan “semiologiya” so‘zi bo‘lib, “belgi haqidagi ta’limot” ma’nosini beradi va ijtimoiy muloqot jarayonidagi belgilar tizimi hisoblanadi. Toponimlar lingvomadaniy belgi sifatida xalqning ma’naviy, madaniy, ijtimoiy, tarixiy, etnografik, tabiatga bo‘lgan munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Toponimik birliklardagi har bir komponent o‘zining muayyan mazmun va mohiyatiga ega bo‘lib, bu semiotik metod orqali tadqiq etiladi hamda anglashilgan mazmun-mohiyat natijasida nomlanishning xususiyatlari o‘rganiladi. Ya’ni semiotik metod asosida tahlil qilishda ba’zi nomlarning lug‘aviy ma’nosi, etimologiyasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning ma’lum darajadagi uslubiy belgilari anglashilib turadi. Masalan, Istiqlol, Mustaqillik, Yangi diyoy, Yangihayot, Bunyodkor, Yangizamin, Yangi turmush, Do‘stlik, Tinchlik kabi toponimlar qo‘llanilishida pozitivlik belgisi, Kal, Kalurgich, Pushaymon qishloq, Bandikuchuk, Qo‘tirbuloq, Jomonjar kabi toponimlarda negativlik belgisi anglashilib turadi.

Statistik metod. Ushbu metod asosida to‘plangan materialni qayta ishlash samarador hisoblanadi. mazkur metod orqali muayyan hudud toponimik birliklarining sonini aniqlash, boshqa tip nomlar bilan chog‘ishtirish, miqdor jihatidan ustunligini aniqlash va foiz nisbatlarida tadqiq etish imkoniyati mavjud. tistik ma’lumotlar tadqiqotchida mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurini aniqlashtiradi va aniq xulosa chiqarishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E.A. Ko‘rsatilgan manba. –B.26-28.
2. Gadayev O.Y. O‘zbek tilida toponegizlar shakllanishining lingvistik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.-B.11.
3. Хасанов Х. Географик номлар сири. –Т.: “Ўзбекистон”, 1985.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент., 2010. - Б.250-251. (328 б.)
5. Пospelov E.M. Топонимика и картография. М.: Мысл, 1976. -256 ст.
6. Санаев И. Бу кўхна дунё. Тошкент, “Адолат”, 1996. - Б.27.
7. Санаев И. Бу кўхна дунё. Тошкент, “Адолат”, 1996. - Б.23.
8. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. 1988, -B.74.
9. Қораев С. Географик номлар маъноси. –В.119.
10. Sanayev I. Ko‘rsatilgan manba, -B.22.
11. Qorayev S. Ko‘rsatilgan manba, -B.119.
12. Sanayev I. Ko‘rsatilgan manba, -B.14.
13. Хакимов Қ.М., Акчаев Ф.Ш. Топонимика фаниинг тадқиқот методлари./Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 42-жилд, 2013. – В.44-46.
14. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. 17-б.